KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARINING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	



BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti,

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

mohinur.kurbanova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2292-7937

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida musulmon ziyorat turizmining rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Jahon Musulmon Sayohati Indeksining (JMSI) ACES 3.0 metodikasi asosida hududning ziyorat turizmiga tayyorlik darajasi aniqlanadi. So'rovnoma usuli orqali 22 nafar mutaxassis fikrlari o'rganilib, transport, kommunikatsiya, atrof-muhit va xizmatlar mezonlari baholandi. Natijalar Buxoro viloyati ziyorat turizmi sohasida "tayyor" darajada ekanini ko'rsatdi (64,55 ball). Shu bilan birga, kommunikatsiya va halol sertifikatlash tizimi sohasida kamchiliklar mavjudligi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, Buxoro, halol turizm, ACES 3.0, Jahon Musulmon Sayohati Indeksi (JMSI), musulmon sayohatchilar, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the development opportunities for Muslim pilgrimage tourism in the Bukhara region. The study determines the level of readiness of the region for pilgrimage tourism based on the ACES 3.0 methodology of the World Muslim Travel Index (WMI). The opinions of 22 experts were studied through a questionnaire method and the criteria of transport, communication, environment and services were assessed. The results showed that the Bukhara region is at the "ready" level in the field of pilgrimage tourism (64.55 points). At the same time, shortcomings in the field of communication and halal certification system were identified, and practical proposals were developed to eliminate them.

Key words: pilgrimage tourism, Bukhara, halal tourism, ACES 3.0, World Muslim Travel Index (WMI), Muslim travelers, sustainable development.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности развития мусульманского паломнического туризма в Бухарской области. В исследовании определяется уровень готовности региона к паломническому туризму на основе методологии ACES 3.0 Всемирного индекса мусульманских путешествий (WMI). Методом анкетирования были изучены мнения 22 экспертов, а также оценены критерии транспорта, связи, экологии и услуг. Результаты показали, что Бухарская область находится на уровне «готовности» в сфере паломнического туризма (64,55 балла). Одновременно были выявлены недостатки в сфере связи и системы халяльной сертификации, а также разработаны практические предложения по их устранению.

Ключевые слова: паломнический туризм, Бухара, халяльный туризм, ACES 3.0, Всемирный индекс мусульманских путешествий (WMI), мусульманские путешественники, устойчивое развитие.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni xalqaro maydonda yangi ziyorat va madaniy meros markazi sifatida tanitmoqda. Xususan, Buxoro viloyati o'zining boy diniy-madaniy merosi, tarixiy obidalar va "Oltin silsila" tariqatiga mansub ziyoratgohlari bilan islom sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu hududdagi "Yetti pir" ziyoratgohlari nafaqat O'zbekiston, balki butun musulmon dunyosi e'tiqod egalari uchun muqaddas maskan sifatida e'tirof etiladi.

2019-yilda Buxoro shahrida o'tkazilgan "I Xalqaro ziyorat turizmi forumi"da qabul qilingan "Buxoro deklaratsiyasi" O'zbekistonning ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatidagi nufuzini xalqaro darajada mustahkamladi. 2024-yilda mamlakat bo'yicha 1745200 nafar xorijiy va 4 milliondan ortiq mahalliy sayyoh Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan bo'lib, ularning muhim qismini diniy-ma'naviy maqsadlarda sayohat qiluvchi ziyoratchilar tashkil etadi. Ushbu raqamlar ziyorat turizmining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan hudud rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.



Mavjud salohiyatga qaramay, Buxoro viloyatida ziyorat turizmi infratuzilmasi, “Halol” sertifikatlash tizimi, xorijiy tillarda xizmat ko’rsatish darajasi hamda musulmon sayyohlar uchun qulay muhit yaratishda ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holat ziyoratchilarga ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatining barqarorligini va xalqaro raqobatbardoshligini cheklaydi.

Shu nuqtai nazardan, Buxoro viloyatining musulmon ziyorat turizmida tutgan o’rnini zamonaviy xalqaro metodikalar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Jahon Musulmon Sayohati Indeksining (Global Muslim Travel Index – GMTI) ACES 3.0 metodikasiga asoslangan Buxoro viloyatining musulmon ziyoratchilarga xizmat ko’rsatish tayyorlik darajasini aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etish bo’yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot O’zbekistonning ziyorat turizm bozorida Buxoro viloyatining pozitsiyasini mustahkamlash, halol turizm standartlarini joriy etish va hududiy turizm siyosatini samarali yo’naltirish uchun amaliy va ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda ziyorat turizmi diniy, ma’naviy va iqtisodiy ahamiyatga ega strategik turizm segmenti sifatida jadal rivojlanmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti [8] ma’lumotlariga ko’ra, dunyodagi barcha sayohatlarning qariyb 27 foizi diniy yoki ma’naviy maqsadlarga qaratilgan bo’lib, bu yo’nalish yiliga milliardlab AQSH dollari miqdorida iqtisodiy oqimni shakllantiradi.

Henderson [5] hamda Battour va Ismail [3] tadqiqotlariga ko’ra, halol turizm musulmon sayyohlarning diniy e’tiqodlari, ibodat va halol ovqatlanish talablariga mos xizmat ko’rsatishni o’z ichiga oladi. Shu sababli, musulmon sayohatchilar uchun qulay infratuzilma, halol sertifikatlangan mehmonxonalar, ovqatlanish joylari va ibodat maskanlari mavjudligi turizmida muhim mezon hisoblanadi.

Islomiy ziyorat turizmini baholashda eng e’tiborga molik xalqaro metodika bu Jahon Musulmon Sayohati Indeksi bo’lib, u CrescentRating va Mastercard hamkorligida ishlab chiqilgan. Ushbu indeks musulmon sayyohlarga do’stona muhitni to’rtta asosiy yo’nalish – Access (yetib kelish osonligi), Communication (kommunikatsiya), Environment (atrof-muhit), Services (xizmatlar) asosida baholaydi [13]. 2021-yildan boshlab takomillashtirilgan ACES 3.0 metodikasi joriy etilib, mamlakatlar va shaharlarning musulmon sayohatchilar uchun tayyorlik darajasini 100 ballik tizimda baholash imkonini bermiqda [16].

Indoneziya, Malayziya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar ACES 3.0 tizimini milliy siyosat darajasida qo’llab, musulmon sayyohlar oqimini oshirishga erishgan. Masalan, Indoneziya “Muslim-Friendly Tourism Masterplan” [11] konsepsiyasi orqali JMSI indeksida ketma-ket yillar davomida birinchi o’rinni egallab kelmoqda. Bu esa o’z navbatida milliy brend sifatida “Indonesia Muslim Travel Index” tizimining shakllanishiga olib keldi.

O’zbekiston misolida esa, ziyorat turizmini rivojlantirish so’nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentning PQ-238-sonli [7] va Vazirlar Mahkamasining [6] 543-sonli qarorlari asosida ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi marshrutlar yaratish, “Halol” sertifikatlashtirish tizimini joriy etish, “Umra+” dasturini kengaytirish bo’yicha amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

Shuningdek, Buxoro viloyatining turizm infratuzilmasi 2020-2024-yillar davomida sezilarli o’sishga erishdi: joylashtirish vositalari soni 372 tadan 607 taga, turoperatorlar soni esa 118 tadan 186 taga oshdi [14]. Bu jarayon “Yetti pir” ziyorat marshrutining kengayishi, “Boqiy Buxoro” tarixiy-etnografik parki va “Islom tamadduni namoyandalari xiyoboni” loyihalarining amalga oshirilishi bilan chambarchas bog’liqdir.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda O’zbekiston ziyorat turizmi salohiyatini JMSI ACES 3.0 metodikasi orqali baholashga oid kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Ko’plab ilmiy manbalar diniy turizmning iqtisodiy jihatlarini yoritgan bo’lsa-da, hududiy tayyorlik, xizmatlar sifati, halol sertifikatlash tizimi va kommunikatsiya ko’rsatkichlari bilan bog’liq empirik tahlillar kam o’rganilgan.

Shu sababli, ushbu maqola mavjud ilmiy bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan bo’lib, Buxoro viloyatining musulmon ziyorat turizmi imkoniyatlarini JMSI ACES 3.0 metodikasi asosida tahlil qilish orqali halol turizm infratuzilmasining hozirgi holatini baholaydi va rivojlantirish yo’nalishlarini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Buxoro viloyatining musulmon ziyorat turizmi sohasida tayyorlik darajasini aniqlash hamda halol turizm standartlari nuqtai nazaridan baholashdir. Shu maqsadda, Jahon Musulmon Sayohati Indeksining (Global Muslim Travel Index – GMTI) ACES 3.0 metodikasi asosiy ilmiy yo’nalish sifatida tanlandi [13]. Mazkur metodika musulmon sayohatchilarga qulay muhitni to’rtta mezon - Access (yetib kelish osonligi), Communication (kommunikatsiya), Environment (atrof-muhit) va Services (xizmatlar) orqali kompleks tahlil qilish imkonini beradi.



Ushbu tadqiqotda miqdoriy va sifatiy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan. Miqdoriy qismda statistika, so'rovnoma va ekspert baholash natijalari asosida o'lchovlar amalga oshirildi. Sifatli qismda esa ziyoratgohlar infratuzilmasi, xizmatlar sifati va halol turizm tamoyillari kontekstida hududning amaliy holati tahlil qilindi.

Tadqiqot dizayni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

ACES 3.0 metodikasi asosida baholash mezonlari mahalliy sharoitga moslashtirildi;

Baholash uchun 20 ta kichik mezon tanlandi (viza tizimi, transport, kommunikatsiya, halol ovqatlanish, tahoratxona, xavfsizlik va boshqalar);

22 nafar ekspert (turizm boshqarmasi, mehmonxona, restoran, diniy qo'mita va turoperatorlar vakillari) ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi;

Har bir mezon 0 dan 5 gacha ball oralig'ida Likert-shkalasi bo'yicha baholandi;

O'rtacha qiymatlar, dispersiyalar va umumiy reyting aniqlanib, Kronbax Alfa (α) orqali so'rovnomaning ishonchliligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Buxoro viloyatining ziyorat turizmi salohiyatini baholash

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyati O'zbekistonning ziyorat turizmi xaritasida eng yirik markazlardan biri sifatida shakllangan. 2024-yilda viloyatda 607 ta joylashtirish vositalari, 186 ta turoperatorlik tashkilotlari va 311 ta turistik transport vositalari faoliyat yuritgan. Bu ko'rsatkichlar 2020-yilga nisbatan mos ravishda 63%, 57% va 11% o'sishni tashkil etgan.

Hududda 156 ta muqaddas ziyorat maskani mavjud bo'lib, ulardan 46 tasi islomiy ziyorat obyektlari sifatida e'tirof etilgan. Ularning eng mashhurlari sifatida "Yetti pir" zanjiridagi Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoni, Xo'ja Muhammad Orif ar-Revqariy, Xo'ja Ali Romitaniy va Bahouddin Naqshband majmualari alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, Buxoroda 51 ta masjid, xonaqo va madrasa faol ravishda ziyoratgoh sifatida ishlatilmoqda [10].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2024-yilda viloyatga 1,74 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ularning 21 foizi ziyorat maqsadida kelgan. Mahalliy sayyohlar soni esa 4 milliondan oshgan. Bu esa Buxoro viloyatining ziyorat turizmidagi ulushining barqaror o'sib borayotganini bildiradi.

2. JMSI ACES 3.0 metodikasi asosida baholash natijalari

Tadqiqotda ACES 3.0 metodikasi asosida Buxoro viloyatining musulmon ziyoratchilar uchun tayyorlik darajasi to'rtta asosiy mezon bo'yicha baholandi: Access (yetib kelish osonligi), Communication (kommunikatsiya), Environment (atrof-muhit), Services (xizmatlar).

Baholash natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Buxoro viloyatining JMSI ACES 3.0 mezonlari bo'yicha baholash natijalari

№	Mezoni nomi	O'rtacha ball	Maks. ball	Baholash darajasi
1	Access (yetib kelish osonligi)	4,03	5	Juda tayyor
2	Environment (atrof-muhit)	3,75	5	Tayyor
3	Services (xizmatlar)	3,35	5	O'rtacha tayyor
4	Communication (kommunikatsiya)	2,00	5	Past
	Umumiy o'rtacha ko'rsatkich	64,55 ball	100 ball	TAYYOR

Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyati 64,55 ball bilan "tayyor" toifasiga kiradi. Eng yuqori ball Access (4,03) mezonida qayd etilgan bo'lib, bu hududning transport infratuzilmasi va viza tizimi rivojlanganligini ko'rsatadi. Eng past natija esa Communication (2,00) mezonida qayd etilgan.

2.1. Access mezonini tahlili

Buxoro viloyati bu mezon bo'yicha yuqori natija ko'rsatgan. 15 mamlakatdan to'g'ridan-to'g'ri aviareyslar, 91 davlat uchun vizasiz rejim va "Ziyorat vizasi" amaliyoti mavjud. Transport infratuzilmasi rivojlangan — 307 ta turistik avtotransport vositasi ishlamoqda, temir yo'l tarmog'i kengaymoqda.

2.2. Communication mezonini tahlili

Eng zaif jihatlaridan biri. Gidlar asosan rus va ingliz tillarida xizmat ko'rsatadi, arab va fors tillarini biladigan mutaxassislar kam. "Muslim Travel Guide" ilovasi va raqamli xaritalar mavjud emas. Bu holatlar xorijiy ziyoratchilar uchun mustaqil sayohatni qiyinlashtiradi.

2.3. Environment mezonini tahlili

Atrof-muhit bo'yicha 3,75 ball qayd etilgan. Xavfsizlik darajasi yuqori, ammo imkoniyati cheklangan ziyoratchilar uchun infratuzilma yetarli emas. 2020–2024-yillarda 175 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilingan, bu hududning barqaror rivojlanish mezonlariga muvofiqligini ko'rsatadi.


2.4. Services mezonni tahlili

3,35 ball bilan baholangan. 98 ta mehmonxona musulmon sayyohlar uchun qulay, biroq 116 ta restorandan faqat bittasi “Halol” sertifikatiga ega. Ayrim ziyoratgohlarda ayollar uchun ibodat joylari yo‘q. Tahoratxona, masjid va xizmat infratuzilmasining yetarli emasligi xizmat sifatini pasaytiradi.

3. So‘rovnoma ishonchliligi va statistik tahlil

Ekspertlar ishtirokidagi baholash natijalari Kronbax Alfa (α) formulasi yordamida tekshirildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, so‘rovnomaning ishonchlilik darajasi $\alpha = 0,95$ ni tashkil etdi, bu esa natijalarning yuqori ishonchliligini bildiradi [4].

Statistik tahlil davomida eng yuqori baholar “Access” va “Environment” mezonlariga, eng past baho esa “Communication” mezoniga to‘g‘ri kelgani aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Mezon ko‘rsatkichlari o‘rtacha bahosi (Buxoro viloyati, 2024-yil)

Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Har bir mezonning e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan kichik mezonlari esa birinchi mezonda transport infratuzilmasini yaxshilash, ikkinchi mezonda Muslim Travel Guideni ishlab chiqish, uchinchi mezonda imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulayliklar yaratish, xizmatlar qismida diqqatga sazovor joylarda musulmonlar uchun shart-sharoitlarni yaratish muhimligi aniqlandi (2-rasm).

4. Muhim natijalar va kuzatuvlar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Buxoro viloyati musulmon sayohatchilarga xizmat ko‘rsatishda “tayyor” (64,55 ball).
- Transport va xavfsizlik infratuzilmasi yetarli, kommunikatsiya va IT zaif.
- Halol sertifikatlash tizimi sust, xizmat sifatiga salbiy ta‘sir qiladi.
- Ziyoratgohlarda raqamli navigatsiya, mobil ilovalar va ko‘rsatkichlar zarur.
- Gidlar va xodimlar uchun arab va malay tillari bo‘yicha tayyorlov kurslari muhim.

5. Umumiy baho

Tahlil natijalariga ko‘ra, Buxoro viloyati musulmon ziyoratchilar uchun xizmat ko‘rsatishga yetarlicha tayyor, ammo xizmatlar sifati va kommunikatsiya bo‘yicha rivojlantirish zarur. Taklif etilgan “O‘zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksi”ni amaliyotga joriy etish hududlar kesimida ziyorat turizmining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyati O‘zbekistonning musulmon ziyorat turizmi bozorida yetakchi o‘rin egallash uchun zarur salohiyatga ega. 64,55 ball natija viloyatning ziyorat turizmi infratuzilmasi, xavfsizlik darajasi va xalqaro kirish imkoniyatlari bo‘yicha sezilarli yutuqlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida aniqlangan asosiy zaif tomonlar kommunikatsiya va xizmatlar sifati bilan bog‘liq bo‘ldi.

Musulmon sayohatchilar uchun xizmatlarning sifatli tashkil etilishi faqat moddiy infratuzilma bilan emas, balki madaniy, diniy va axborot salohiyati bilan ham belgilanadi [2]. Buxoro viloyatida mavjud xizmatlar halol standartlariga to‘liq mos emasligi, arab va malay tillarida axborotning yetishmasligi, mobil ilovalar va interaktiv xaritalarning yo‘qligi bu yo‘nalishda qo‘shimcha choralarni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, ACES 3.0 metodikasi nafaqat mamlakat, balki viloyat darajasida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv turistik hududlarning musulmon sayyohlarga do‘stona muhit yaratish darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi. Masalan, Buxoro viloyatining “Access” mezonni 4,03 ballni tashkil



etgani uning logistika imkoniyatlarining yuqoriligini bildirsa, "Communication"ning 2,00 ballga tengligi raqamli marketing, xorijiy tillarda gidlik xizmatlari va axborot tizimlari sohasidagi kamchiliklarni ko'rsatadi.

O'rganilgan adabiyotlarda [15; 17; 18] ta'kidlanishicha, musulmon sayohatchilarning qoniqish darajasi ko'pincha halollik, tozalikka e'tibor, ibodat uchun qulaylik va mahalliy aholining diniy bag'rikengligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, Buxoro viloyati uchun mavjud "Yetti pir" ziyoratgohlarining brendlashuvi va ularni yagona "Muslim Heritage Trail" konsepsiyasi asosida targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, xalqaro tajriba ko'rsatadiki, musulmon turizmi sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun halol turizm siyosatini davlat darajasida tizimlashtirish, xizmat ko'rsatuvchi soha xodimlarini o'qitish va marketingni raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [1; 9; 12].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyati musulmon ziyorat turizmini rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo'lib, JMSI ACES 3.0 asosida ishlab chiqilgan "Muslim-Friendly Destination Index" modeli yordamida infratuzilma, halol xizmatlar va raqamli kommunikatsiyani takomillashtirish orqali barqaror rivojlanish va xalqaro imijni oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Badar R., Charadeo S. Sufism and Tourism interface //The SPA Journal of Planning and Architecture. – 2016. – T. 20. – №. 1-2.
2. Battour M. et al. The current state of published literature on halal tourism and hospitality: a bibliometric review //Journal of Islamic Marketing. – 2024. – T. 15. – №. 4. – C. 963-989.
3. Battour M., Ismail M. N. Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future //Tourism management perspectives. – 2016. – T. 19. – C. 150-154.
4. Cronbach L. J. Coefficient alpha and the internal structure of tests //psychometrika. – 1951. – T. 16. – №. 3. – C. 297-334.
5. Henderson J. C. Religious tourism and its management: The hajj in Saudi Arabia //International Journal of Tourism Research. – 2011. – T. 13. – №. 6. – C. 541-552.
6. <https://lex.uz/ru/docs/-6212874> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli qarori
7. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6549286> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. <https://www.unwto.org> – Birlashgan millatlar Butunjahon turizm tashkiloti
9. Husein U. S. M. Tourism Management Perspectives //Tourism Management. – 2018. – T. 26. – C. 9-19.
10. Kurbanova M. ZIYORAT TURIZMIGA IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA TARIXIY-ILMIY YONDASHUV //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 1. – C. 418-427.
11. Mahliza F. et al. Discourses of Muslim-friendly tourism (Indonesia empirical cases) //Journal of Islamic Economics & Social Science (JIESS) p-ISSN. – 2021. – T. 2722. – C. 7499.
12. Majid M. et al. From Ritual to Revenue: Reframing Indonesia Pilgrimage Management as A Strategic Economic Diplomacy //Jurnal Ilmiah Teunuleh. – 2025. – T. 6. – №. 3. – C. 281-297.
13. Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. May. 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi Vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining Buxoro viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari
15. Ratnasari R. T. et al. Research trends of halal tourism: a bibliometric analysis //Journal of Islamic Accounting and Business Research. – 2024.
16. Thomson Reuters D. S. State of the global Islamic economy report 2018/19 //Dubai International Financial Centre. Retrieved from <https://haladinar.io/hdn/doc/report2018.pdf>. – 2021.
17. Uyuni B. et al. Exploration of wali-songo (nine saints) ziyarat in Indonesia from religious tourism (pilgrimage) perspective //Cogent Arts & Humanities. – 2024. – T. 11. – №. 1. – C. 2395110.
18. Zamani-Farahani H. et al. Islamic tourism in the Middle East //Routledge handbook on tourism in the Middle East and North Africa. – Routledge, 2018. – C. 125-136.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>